

TALABALARNING AKADEMIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAGA ASOSLANGAN YONDASHUV: MUAMMO VA YECHIMLAR

Koshnazarova Maloxat Alimovna,

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida o‘qituvchisi

maloxatkoshnazarova093@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0005-4589-0873>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18445080>

Annotatsiya. Maqolada ta'lim sifatini oshirish, shu bilan birga akademik yozuv fanini o'qitishda loyihali ta'limning samaradorligi, ahamiyati, “Ketma-ketlik yaxlit loyiha” ning amaliyotga joriy qilinishi bayon etilgan. Xususan, talabalarda mustaqil va mantiqiy fikrlash, ijodiy, kreativ va tanqidiy yondashuv hamda yozma nutq uchun tizimli, loyihaviy yondashuvning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: loyihali ta'lim, akademik yozuv, tizimli topshiriq, kompetensiya, o'quv loyihalari, raqamli yondashuv.

Аннотация. В статье описывается эффективность и значение проектного обучения в повышении качества образования, а также практическая реализация «Последовательного интегрированного проекта». В частности, рассматриваются теоретические и практические аспекты развития у учащихся самостоятельного и логического мышления, творческого, критического подхода и систематического, проектного подхода к письменной речи.

Ключевые слова: проектное обучение, академическое письмо, систематические задания, компетенции, учебные проекты, цифровой подход.

Abstract. The article describes the effectiveness and importance of project-based learning in improving the quality of education, as well as the practical implementation of the “Sequential Integrated Project”. In particular, the theoretical and practical aspects of developing students' independent and logical thinking, a creative, critical approach, and a systematic, project-based approach to written speech are considered.

Keywords: project-based learning, academic writing, systematic assignments, competencies, learning projects, digital approach.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 29.10.2020-yildagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlarida ta’kidlanganidek, raqamlashtirish davrida oliy ta’lim tizimida raqamli ta’limni rivojlantirish, talabalarning raqamli kompetentligini oshirish, ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega bo‘lgan, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish bugungi kunning davr talab qilayotgan asosiy vazifalaridan biri deb ko‘rsatilgan.[1]

Hozirgi davrda ta'lim muhitida talabalarni nafaqat bilim bilan ta'minlash, balki ularning kreativ yondashish, mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, analitik fikrlash hamda akademik yozish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Asosan, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning yozma akademik kompetensiyasi, ilmiy matnlarni tuzish, fikrlarni tizimli ifodalash, mantiqiy izchillik hamda fakt va dalillarga asoslanib tahlil qilish qobiliyati, ta'limning sifatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir.

Shunday qilib, bugungi kunda ta'lim berish jarayonida o'qituvchining faoliyati faqat amaliy, ilmiy asosda emas, ijodiy-kreativlik asosida bilim berish jihatini faol amalga oshirilishi kerak. O'qituvchining faoliyati ko'p qirrali bo'lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo naltiruvchi, tashkil etuvchi, va baholovchi rollarini amalga oshirishlari kerak bo'ladi.[2] Darhaqiqat, malakali o'qituvchi bo'lish ko'p mehnat talab qiladigan hamda o'zining fundamental bilim doirasini tinimsiz kengaytirib boradigan faoliyatdir. Ana shundagina bunday insonlarda ijodiylik, mantiqiy fikrlash, turli sohalar bo'yicha munosabat bildirish kuchliroq bo'ladi. An'anaviy metodlardan innovatsion metodlarga o'tish, tizimli topshiriqlar ishlab chiqish, raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarni ilmiy yozishga tayyorlash imkoniyati yaratiladi. Muammo shundaki, talabalar ko'pincha ilmiy uslubda yozishda qiyinchiliklarga duch kelishadi: aytaylik, matni mantiqan bog'lash, tanqidiy tahlil qilish, mustaqil fikrni ifodalash va dalillash. Bu esa transformatsion yondashuv orqali ketma-ket hal qilinadigan jarayondir. Shu maqsadda tadqiqotimizda o'quv loyihalari asosida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning yozma nutq va ilmiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishda "Akademik yozuv" fanining o'rnini nihoyatda kattadir. Chunki ushbu fan talabalarga ilmiy va yozma matnlarni yaratishda nafaqat zarur ko'nikmalarni, balki yangi sharoitlarga moslashish, mustaqil izlanish, innovatsion fikrlash va raqamli kompetensiyalarni ham rivojlantirish imkonini beradi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Korotkina I.B., Zashixina I.M., Добрынина O.L., Bazilev B.N., Kolesnikova N.I., Pavlova N.I., Menyaylo B. B. hamda Gusakovskiy M.A. kabi rus olimlari talabalarda yozma akademik kompetensiyasini rivojlantirish, yozma nutq savodxonligini oshirish, ilmiy matn yaratish, matn yaratishda jarayon, mahsulot va amaliyot ishlari ularning tadqiqot ishlarida tadqiq qilingan.

"Akademik yozuv" fani va uning o'qitilish jarayoni bo'yicha hamda fan sifatida rivojlanishida ham juda uzoq izlanishlar, tadqiqotlar olib borilgan. Aytaylik, rus olimi Korotkina I.B., o'zining "Академическое письмо: процесс, продукт и практика" nomli darsligida jarayon, mahsulot va tajribaning bog'liqligini, talabalarning akademik yozma savodxonligini tinmay oshirish, ularga akademik ko'nikmalarni rivojlantirish orqali mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, tanqidiy fikrlash hamda ularni tizimli ravishda shakllantirish bo'yicha aniq fikrlarni bayon etadi.

Talabalar akademik yozuv fani orqali nafaqat yozma madaniyatni, balki ilmiy tafakkurni ham shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mazkur fan o'qitilishida rus olimi I.B Korotkina quyidagi tamoyillarni asos qilib oladi. Bilish (Знать) – nazariy bilimlarni egallash, fan va uslublarni tushunish; Qila olish (Уметь) – olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash, yozma matn yaratishda foydalanish; Egallash (Владеть) – mustahkam kompetensiya sifatida bu ko'nikmalarni o'zlashtirish va ularni muntazam rivojlantirish.[3] Bundan tashqari I.M. Zashixina ham “Akademik yozuv” fanini Rossiya universitetlarida “Академическое письмо”, “Академическое чтение и письмо”, “Академическое письмо и публичное выступление” kabi 3 ta darajaga bo'lib o'rganilishi haqida fikr yuritadi. 2019-yillardan boshlab “Академическое письмо и публичное выступление” kursi turli yo'nalishdagi magistr'larga ingliz tilida o'qitilayotganligi haqida ma'lumot beradi. Bu fanning maqsadi talabalarni, doktorantlarni ilmiy maqolalar yozishga o'rgatish, ularda akademik savodxonlikni rivojlantirish, akademik ko'nikmalarni shakllantirishdir.[4]

Mamlakatimizda ham bir qancha olimlar o'z tadqiqotlarida bakalavriat hamda magistratura bosqichi talabalari ham ilmiy matnlar tuzish, mantiqiy bog'lanishlilik, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda bayon etish, muammoni belgilash, izlanish, shuningdek, gipotezani shakllantirishda qiyinchiliklarga duch kelayotganligi haqida fikr bildirishgan. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, turli o'quv loyihalari orqali talabalarda fan doirasida yozma akademik kompetensiyasini rivojlantirish ularda bir qancha ko'nikmalarni bosqichma-bosqich egallashga xizmat qiladi.

Yozma akademik kompetensiya		
T/r	Ta'rif	
2	Mazmun doirasi	Shaxsning ilmiy, o'quv va kasbiy faoliyatda fikr va g'oyalarni yozma shaklda mantiqan izchil, dalillangan hamda akademik uslubda ifodalash
3	Qo'llanilish sohasi	Kengroq tushuncha bo'lib, ilmiy fikrni yozma shaklda ifodalash, tahlil qilish, manbalarni qo'llash, umumlashtirish va xulosalash jarayonlarini
4	Tarkibiy qismlari	Ta'lim jarayonidagi umumiy akademik kompetensiyalar tizimining tarkibiy qismi sifatida talabalar-ning yozma faoliyatini rivojlantirishga xizmat qil-
5	Maqsad	Bilim, ko'nikma, malaka, tahlil, argumentatsiya, man-balar bilan ishlash, yozma madaniyat hamda akademik etikaga rioya qilish
6	Natija	Talabalarda yozma fikrlash, ilmiy asostash va aka-demik me'yorlarga muvofiq ifoda etish kompeten-siyasini rivojlantirish

(1-rasm: Yozma akademik kompetensiya)



(2-rasm: Turli o'quv loyihalari)

Loyihali ta'lim (Project-based-learning) afzalligi shundaki, talabaning biror muammoga yuzlanib, tizimli ravishda tinimsiz izlanish olib borishi talabani faol subyektga aylantiradi. Mazkur metodni amalga oshirishda o'qituvchi va o'rganuvchilar vazifalari aniqlashtirilishi kerak. Loyihaga asoslangan topshiriqlar darsda ishchanlik kayfiyatini paydo qiladi, talabalar egallagan BMKlarini tanish va notanish vaziyatda qo'llaydilar.[5] Aytaylik, maqola mavzusi bo'yicha (Project-based-learning) asosidagi "**Ketma-ketlik yaxlit loyiha**".

1-topshiriq: Sohadagi biror muammoni aniqlash hamda belgilangan muammolarni infografikalar yordamida ko'rsatish. Maqsad: Aniqlangan bo'shliqlarni modellashtirish. Bu orqali talaba sohadagi kamchiliklarni tahlil qilish hamda vizual tarzda bayon etish ko'nikmasini rivojlantiradi. Chunki vizuallik orqali muammoning qismlari, sabab va oqibatlarini ixchamlashtiriladi.

2-topshiriq: Aniqlangan muammoning dolzarbligini ko'rsatish. Maqsad: Bu nima uchun kerak? Savolini dalillar bilan asoslab berish. Bu esa talabada akademik matnning kirish qismini shakllantirishda yordam beradi. Dolzarblikni aniqlashda "Bugungi kunda qanday", "Aslida qanday bo'lishi lozim?" degan turli fikrlarni tahlil qiladi, tanqidiy jihatdan o'rganadi.

3-topshiriq: Manba yig'ish (O'zbekiston va jahon). Maqsad: Mavjud tajribani qiyosiy o'rganish. Talabalar bu orqali faqat mahalliy manbalarni o'rganib qolmay, balki xalqaro manbalarni izlab, ularning tajribalarini o'rganish orqali qiyoslash talab etiladi. Bu topshiriq orqali talabalar samarali yechim topish, sintez qilish ko'nikmasiga ega bo'lishadi.

4-bosqich: Ilmiy yangiliklarni vizualizatsiya qilish. Maqsad: O'rganilgan manbalarni sintez qilish. Ma'lumotlarni sintez qilib, turli jadvallar, infografikalar orqali bayon etish, bu orqali esa vizual savodxonlikni oshirish.

5-bosqich: Talabaning shaxsiy g'oyasi. Maqsad: Gipotezani shakllantirish. Talaba o'zining taxminiy fikrining natijasini rejalashtirib, ilmiy uslubda bayon etadi va boshqa olimlarning fikrlarini ma'nosini saqlagan holda yozish, perefraza qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

6-bosqich: G'oyani amalga oshirish. Maqsad: G'oyani ilmiy matn ko'rinishida bayon etish. Talaba o'z g'oyasini dalillar keltirish orqali asoslash, isbotlash, iqtibos keltirish, o'z g'oyalar fikrini hurmat qilish madaniyatini shakllantiradi.

7-bosqich: Natijani ko'rsatish (Taqqimot) Maqsad: Yakuniy mahsulotni himoya qilish. Talaba ilmiy ma'lumotlarni oddiy til bilan, dalillar keltirish, kichik matnlar orqali asoslash, taqqimot tayyorlash, dizayn, grafiklar qilish, muhim natijalarni lo'nda qilib ko'rsata bilish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Talabada bir qancha ko'nikmalar birlashib, mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassisga aylanadi.

KETMA-KETLIK YAXLIT LOYIHA

Project-based-learning asosidagi maqola

25.III.2026



(3-rasm: Ketma-ketlik yaxlit loyiha)

Tadqiqot natijalari va muhokama. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, loyiha asosidagi yondashuv, talabalarni faollikka chaqiruvchi drayver hisoblanadi.

Ularda:

- ✓ jamoaviy muhit;
- ✓ akademik savodxonlik;
- ✓ intellektual ko'nikmalar shakllanadi.

Talabani faol subyektga aylanishi, o'qituvchining esa yo'naltiruvchi vazifasini bajarishi tizimli ravishda harakat qilish mas'uliyatini oshirib, mustaqil o'rganishni kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati. Loyihali yondashuv natijalari quyidagi holatlarda:

- ✓ metodik tavsiya, yo'riqnoma;
- ✓ mustaqil ta'limga yo'naltirish;
- ✓ raqamli muhitni tashkil etish;
- ✓ o'quv dasturlarini modernizatsiya qilishda qulay va samaralidir.

Xulosa qilib aytganda, loyihali ta'limda izlanishdan tortib, o'z go'yasini himoya qilishgacha bo'lgan kompetensiyalar shakllanib, ilmiy muhitga moslashtirishga tayyorlaydi, ularda yozuv mahoratining oshishi, ma'lumotlarni saralash, tanqidiy fikrlash, kolobrativ muhit hamda kelajakda o'z yo'nalishiga oid bilim yaratishga safarbar turgan raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi PF-6079-sonli "Raqamli iqtisodiyot-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni.
2. Shayakubov, Sh. K., Ayupov, R. X. Interfaol ta'lim usullari: O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Tafakkur-Bo'stoni", 2012. – 136 b.

3. Короткина, И. Б. Академическое письмо: процесс, продукт и практика: учебное пособие для вузов / И. Б. Короткина. — 2-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2024. — 349 с. — (Высшее образование). — Текст: непосредственный. ISBN 978-5-534-17724-4.
4. Зашихина И.М. Академическое письмо: дисциплина или дисциплины? Original article. DOI: 10.31992/0869-3617-2021-30-2-134-143 Высшее образование в России (online)ISSN 0869-3617 (Print), ISSN 2072-0459.
5. Sh.Sh. Yuldasheva. Raqamlashtirish sharoitida o‘zbek tilini oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishning lingvometodik tizimi. Ped. fan. doktori ...diss.-T.: 2025. -279b
6. M. Qo‘shnazarova. Raqamli ta’lim sharoitida akademik yozuv fanini o‘qitishda transformatsiya jarayonlari // Inson kapitali va mehnatni muhofaza qilish. Ilmiy-amaliy elektron jurnal. – Toshkent, 2025. – № 3 (6). – B. 550–556. – ISSN 3060–4982.

